

EVROPA FALSAFASIDAGI TURLI OQIMLAR

NASRIDDINOV ILYOSIDDIN IKROMJON O'G'LI.*TDTr.U talabasi.***DAVRONOV ZIYOT DAVRONOVICH.** Ilmiy raxbar.

:

O **Abstract:** It should be said that the end of antiquity forced to search for more important processes in human activity. People started to look for the reasons of life difficulties in religion. At that time, the developed Neoplatonism and the dying Stoic views began to cause Christianity to spread widely. In such a situation, new philosophical currents began to appear.

b **Key words:** Christianity, social conditions, Neoplatonism, nominalism and realism, materialistic.

‘ Eramizning IV asrining oxirida Rim imperiyasi ikkiga bo‘linib ketdi. Shu munosabat bilan xristianlik dini davlat diniga aylandi. Ayni shu davrlarda (375-568) ro‘y bergen german qabilalarining ko‘chishi G‘arbiy Rim imperiyasining barbod bo‘lishiga olib keldi. Antik davr tugab O‘rta asrlar boshlandi.

Ellada-Rim davridagi ijtimoiy shart-sharoitlar o‘sha davr siyosatidan ma’lum darajada chekinish va nazariy falsafaga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishiga olib keldi. Aytish lozimki, antik davrni tugashi, insonlar faoliyatidagi muhimroq jarayonlarni izlab topishga majbur qila boshladi. Turmush qiyinchiliklari sabablarini insonlar endi, dindan axtara boshladilar. O‘sha davrda rivojlangan neoplotonizm va tugab borayotgan stoiklar qarashlari xristianlikni keng tarqalishiga sabab bo‘la boshladi. Xristianlik o‘z mohiyati jihatidan insonlar faoliyatiga qaratilgan edi. U har bir kishiga najot izlashga yordam berardi. O‘sha davrdagi siyosiy huquqsizlik moddiy nochorlik va jismonan azob-uqubatlar, yovuzlik va johillik bo‘lishidan qat’iy nazar, insonlar yaxshi yashash umidini yo‘qotmasdi. Hech bo‘lmaganda ular shunga intilardi. Bu dunyodagi hayot,

xristian dinining targ‘iboticha, dramatik tarixiy jarayonning bir qismi bo‘lib, uning oxirida har kishini bu hayotdagi nohaqliklar va ko‘rilgan javbru sitamlar uchun kelajakda odil mukofoti bor. Chunki, barcha holatlarni sezuvchi tangri taolo barchani yaratuvchisi sifatida o‘zi mehribonlik qiladi. Ana shunday g‘oyalar asosida O‘rta asrning boshlarida Aristotel ta’limoti xristianlik bilan sintezlashtirildi va xristian dini hukmron bo‘la boshladi. Oldingi mavzularni birida ta’kidlanganidek, xristianlar dinining ikkiga: “katolik” va “protestantlik”ka bo‘linish yagona mafkuraning yemirilishiga olib keldi. Bu bo‘linish xristianlik teologiyasini keltirib chiqardi. Teologiya noxristianlarni e’tirozlarini himoya qilishga qaratildi. Grek faylasuflari uchun inson umuman va butkul kosmosda boshqa jonivorlar bilan birga bo‘lgan mavjudot hisoblanadi. Insonlar muayyan darajada yuqori turuvchi ammo alohida, imtiyozli o‘rinni egallamagan mavjudot hisoblangan. Tosh va tuproq, o‘simplik va hayvonlar, odamlar va xudolar bitta tugal olamda mavjud deb tushunilgan. Xristianlik qoidasiga ko‘ra esa bunday bo‘limgan. Xudo bu dunyodan yuqoridagi mavjud shaxs hisoblanadi. Butun borliq- toshlar, o‘simpliklar, hayvonu-odamlar xudo tomonidan odamlarning makoni sifatida insonlar panoh topishi uchun yaratilgan. Olam va odamlar xudoga nisbatan ikkilamchidir.

Inson kosmologik va qadriyatlik jihatidan markaziy mavjudotdir. Hayot tarixdan iborat bo‘lib u qiyomatga qarab harakatlanadi. Davr o‘tishi bilan xristianlikning g‘oyalari falsafadan, jumladan, siyosiy falsafadan ham o‘rin olaboshladi. Bu g‘oyalar asosida dunyoviy institut va cherkov instituti paydo bo‘ldi. Cherkovlar davlat qo‘l ostidagi va u davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanuvchi institut sifatida shakllandı. Cherkov davlatning etnik-diniy masalalar bo‘yicha rasmiy tanqidchisi mavqeini qo‘lga kiritgandan so‘ng, odamlar dunyoviy hukmronlarni tanqid qilish uchun ma’lum asoslarga ega bo‘ldilar. Bu Yevropada ozodlik g‘oyalarini rivojlanishiga yordam berdi.

Ana shunday bir sharoitda yangi falsafiy oqimlar paydo bo‘laboshladi. Shular jumlasiga nominalizm va realizmni olish mumkin. G‘arbiy Yevropa falsafasida ikki oqim – nominalizm, realizm orasida kurash davom etdi. Realizm

– sxolastika, diniy qarashdir. Nominalizm – o‘z davrining progressiv qarashi edi. Ular orasidagi kurash umumiyligi tushuncha – universallar masalasi uchun kurash edi.

Realizm vakili Duns Skot fikricha, tushuncha real mavjud mohiyatga ega, u birlamchi, narsalar ikkilamchi, tushuncha mangu, narsalar vaqtincha.

O‘rtta asr realizmi idealizmning ifodasi katolitsizm, sxolastikaning falsafiy asosi edi. Foma Akvinskiy Aristotel falsafasi orqali xristian- aqidalar sistemasini nazariy asoslashga urindi. Aristotelning materialistik, progressiv qarashlarini olib tashladi. Shakl bordir, shakl birlamchi, jon o‘lmas, tana esa halok bo‘ladi. 1) Tabiatdan tashqari aql bor; 2) Tabiiy kishini aqli bor. Bu xristianlik falsafasining asosidir, deb fikr yuritdi.

Feodalizm davrida falsafa o‘zining yangicha bosqichiga ko‘tarildi. Foma Akvinskiy /1225-1274/ katolik dinini ideologiyasini ishlab chiqdi. Ya’ni uning ideologiyasida falsafa va dinning maqsadi xudoning mavjudligini isbotlashdir. Undan tashqari jamiyatdagi tengsizlikni ham xudodan, deb biladi.

O‘rtta asrda diniy ideologiya asosiy hukmon bo‘ldi. Lekin materialistik va ateistik qarashlarni tamomila tugata olmaydi. O‘rtta asrda materializm bilan idealizm o‘rtasidagi qarama - qarshilik realizm bilan nominalizm o‘rtasidagi qarashda ifodalanadi. Nominalistlar fikricha, yakka – yakka narsalar ularning xususiyatlari ob’ektiv mavjud. Ular birinchi, tushuncha ikkilamchi. Tabiat bo‘lmaganda ularda tushuncha ham bo‘lmassi.

Nominalistlar va realistlar tushunchalarni umumlashtirishning haqiqiy mohiyatini ya’ni narsa va hodisalardagi mavjud hodisalar bizning ongimizda aks etganligini tushuntirdilar, ammo ayrim va umumiyligi hodisalar orasidagi bog‘lanishni birga emas, qarama - qarshi qilib qo‘ydilar.

Jamiyat moddiy hayotning o‘zgarishi, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi feodal ishlab chiqarish usulida revolyusion o‘zgarishning zarurligini keltirib qo‘ydi. Ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi feodal tuzumini yo‘q qilishga harakat qila boshladi, bu jarayon burjuaziya revolyusiyasi bilan tugallandi. Lekin bu davrdagi falsafiy dunyoqarash shunday keskin kurashlarga

duch keldiki, Kopernikning nazariyasini xudosizlikda ayblast, Djordano Brunoning o'tda kuydirilishi, Galileyni qorong'ulikka uloqtirilishi ham fan va umuman materialistik falsafaning progressiv taraqqiyotiga to'sqinlik qila olmadi. Tabiat hodisalarini o'rganuvchi tabiiy fanlar shakllana boshladi. Endi tabiat fani bilan, falsafa orasidagi munosabat o'zgara boshladi, ya'ni tabiiy fanlarning o'sishi materialistik falsafaning o'sishiga olib keldi.

Kopernik gelotsentrik sistemani ishlab chiqdi. Ya'ni, yer shari o'z o'qi atrofida aylanishi bilan kun va tunni bo'lishi Quyosh atrofida aylanish bilan yil fasllarining o'zgarib turishini isbotlab berdi. Ptolomeyning Quyosh sistemasining markazi yer deyilishining noto'g'ri ekanligini ko'rsatib gelotsentrik sistemani yaratdi. Ptolomey ta'limoticha Quyosh yer atrofida aylangandek ko'rindi aslida mohiyati unday emas. Kopernikning progressiv ideyalari falsafa tarixida katta rol o'ynadi.

Undan keyingi o'tgan olim Djardano Bruno Kopernik nazariyasidan materialistik xulosa chiqardi. Bruno dinga qarshi kurashuvchi progressiv olim edi. Bruno fikricha, olam hisobsiz yerlar, quyoshlar sistemasidan iboratdir. Lekin, Bruno yashagan davr uning progressiv fikrlarini rivojlantirishga yo'l qo'ymadı. Uning faoliyati inkivizatsiya /katolik cherkovi sudi / davridagi sudda qoralanib o'zi esa o'ldirildi.

Yangi davr falsafasi XVI-XVII asrda Angliyada kelib chiqdi. Angliya materializmining asoschisi F.Bekon edi / 1561-1626/. Bekon falsafasi Angliya burjuaziyasining intilishini ifodalaydi. Bekon tajribaga asoslagan bilim haqiqiy bilim, deydi. Undan tashqari inson tabiatini o'rganishi va o'ziga bo'ysundirishi kerakligini uqtirdi. Dunyoda bilimning asosiy quroli tajribadir deydi. Bilim protsessida tafakkurning, nazariyani rolini inkor etmaydi. Narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishini aniqlash haqiqiy bilim garovidir, deydi. Elementlarning sifat muayyanligini ta'kidlaydi. Materiya bilan harakat o'rtasidagi uzluksiz bog'lanishni e'tirof etadi.

Bekon falsafasida dialektika elementi bo'lishiga qaramay, uning materializmi asosan mexanistik edi.

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В

ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS

S

Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз қизи.

РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE

R

Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой қизи. РОЛЬ

ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING

O

М Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла

Қайрулла Ўғли, & Ғанибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК

ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА

ШУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and

Social sciences, 3 (3), 16-21.

О Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухоликов, Диёрбек Сайрбек

Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ

МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ

ШУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational,

Natural and social sciences, 3 (3), 41-46.

Б. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА

ӘЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ

МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ

ЕАХЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.

N

S

A

N

D

N